UO‘K 344,131,1.

1916-YIL TURKISTON O‘LKASIDAGI QO‘ZG‘OLONLAR VA ULARNING OQIBATLARI

M.I. Sultonova

Maqolada Birinchi jahon urushining Rossiya va uning mustamlakasi bo‘lgan Turkistonga ta’siri, 1916-yil Turkiston o‘lkasidagi qo‘zg‘olonlar sababi va jarayoni tahlil etilgan. Jumladan, Turkiston o‘lkasida qo‘zg‘olonlarning kelib chiqishi, o‘lka ma’muriyatining olib borgan siyosati va uning aholi ijtimoiy hayotiga ta’siri, turli xalqlar va ijtimoiy qatlamlarning qo‘zg‘olonlardagi ishtiroki sabablari, oqibatlari arxiv va tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Rossiya imperiyasi, Turkiston, xom ashyo bazasi, Birinchi jahon urushi, safarbarlik, qo‘zg‘olon, “eski” va “yangi” rus qishloqlari, qirg‘izlar, dunganlar.*

В статье анализируется влияние Первой мировой войны на Россию и её колонию Туркестан, а также причины и ход восстаний 1916 года в Туркестане. В частности, на основе архивных и исторических источников освещены зарождение восстаний в Туркестанском крае, политика руководства края и её влияние на социальную жизнь населения, причины и последствия участия разных народов и социальных слоев в восстаниях.

Ключевые слова: *Российская империя, Туркестан, сырьевая база, Первая мировая война, мобилизация, восстание, «старые» и «новые» русские деревни, киргизы, дунганы.*

Kirish

Turkistonning Rossiya imperiyasi davridagi tarixini o‘rganar ekanmiz, qonunchilik manbalariga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Rossiya ma’muriyati Turkiston uchun me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, xalqning milliy, diniy va madaniy merosini hisobga olmadi, bu esa ko‘p hollarda xalq o‘rtasida tushunmovchilik, keskinlik va hatto qonli to‘qnashuvlarni keltirib chiqardi. Imperatorning 1916-yil 25-iyundagi “Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlarini front orti mehnatiga safarbar etish to‘g‘risida”gi farmoni Turkistonda yangi xalq g‘alayonlari va qo‘zg‘olonlariga sabab bo‘ldi.

Ilmiy adabiyotlar va arxiv ma’lumotlari asosida 1916-yilgi qo‘zg‘olonlarning sabablari ko‘rib chiqildi. Mintaqada ommaviy tartibsizliklar avj olganligi sababli Rossiya siyosiy olamida Turkiston masalasiga alohida e’tibor qaratilgan, hatto “ikkinchi front” ochildi deb fikr yuritilgan. Bundan tashqari, Rossiya Davlat Dumasi 1916-yil Turkistondagi vaziyatni tekshirish uchun A.F.Kerenskiy boshchiligida maxsus komissiya yuborgan. Komissiya xulosasiga ko‘ra, chor hukumati farmoni, harbiy vazirga katta vakolatlar berilishi, shuningdek, mahalliy ma’muriyatning o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishi oqibatida mamlakatdagi vaziyat yanada og‘irlashgan. 1916-yil qo‘zg‘oloni Turkistonda kutilmagan keskinlikni keltirib chiqardi. Buning asosiy sabablaridan biri mustamlakachilik tuzumiga asoslangan imperator hukumati tomonidan Turkistonning mahalliy aholisi manfaati poymol qilinganligi deb tushunish mumkin.

1916-yilgi qo‘zg‘olon tafsilotlari bo‘yicha ko‘plab ilmiy monografiyalar, maqolalar va tezislar e’lon qilingan. Qo‘zg‘olon Turkiston o‘lkasining deyarli barcha viloyatlarida bo‘lganligi, o‘troq va ko‘chmanchi aholi vakillari turli usullarda qarshilik sifatida qo‘zg‘olon qilgan bo‘lsa-da, sabablari deyarli bir xil ekanligi, mustamlakachi va mahalliy ma’muriyatning adolatsiz vakillariga va ularning faoliyatiga qarshi ekanligi arxiv manbalari va ilmiy nashrlar orqali yoritilgan.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot uchun foydalanilgan materiallar Rossiya imperiyasi davrida “front ortidagi ishlarga safarbarlik” masalasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, arxiv manbalari, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, Turkiston o‘lkasida safarbarlik siyosati oqibatida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yoritilgan il-

miy manbalardan iborat. Ushbu manbalar tadqiqotda xolislik va tanqidiy yondashish nuqtayi nazarida tahlil etildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy-xronologik, siyosiy vaziyatga oid raqam va dalillarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

XX asr boshlarida imperialistik davlatlar o‘rtasidagi dunyoni qaytadan bo‘lib olish uchun kurashlar Birinchi jahon urushi boshlanishiga sabab bo‘ldi. Iqtisodiy jihatdan Yevropa davlatlaridan orqada bo‘lgan Rossiya imperiyasi barcha iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini urushga safarbar qildi, bunda harajatlarini Turkiston va boshqa mustamlakalar hisobidan qoplashga harakat qildi. Urush Turkiston o‘lkasidagi og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yanada keskinlashtirdi, bu esa aholi o‘rtasida turli noroziliklarga, qo‘zg‘olonlarga olib keldi.

XX asr boshida Turkiston Rossiya xom ashyo bazasiga aylangan o‘lka hisoblangan. Urush oqibatida imperiya bosimi yanada kuchaydi, sanoat va armiya uchun yoqilg‘i, oziq-ovqat, ishchi ot-ulovlar, aravalar, chodirlar va to‘shama kigizlar yetkazib berish majburiyati qo‘yildi. 1914-yilning o‘zida Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari imperiya ehtiyoji uchun 1 mln. bosh qo‘y yetkazib berdi [1. B. 15]. 1915–1916-yillarda oziq-ovqat narxlari oshdi, paxta narxi esa keskin pasayib ketdi.

1916-yil 25-iyunda Rossiya imperatori Nikolay II tomonidan imzolangan “Front ortidagi ishlarga Turkiston, Kavkaz, Sibir aholisini safarbar etish to‘g‘risida”gi farmonga ko‘ra, safarbarlik 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan erkaklar nisbatida belgilandi va Turkistondan 250 ming kishi safarbar etilishi belgilandi [2. B. 38]. Front ortidagi ishlarga safarbarlik g‘oyasi Ministrlar Kengashi raisi B.V.Shtyurmerga tegishli bo‘lib [3. B. 71], oqibati keskin bo‘lishi hisobga olinmagan. Gippius ma’lum qilishicha, farmon Turkiston o‘lka, viloyat harbiy gubernatorlariga 1916-yil 29-iyunda yetkazilgan va tezkor ijro etish uchun shoshilinch 2-iyul kuni Toshkentda kengash chaqirilgan [4].

Kengash hududlarda farmon e’lon qilinishidan oldin dastlabki chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, Turkistonning besh viloyatiga safarbarlik taqsimlandi va safarbar etiladiganlar ro‘yxatini shakllantirishdek murakkab vazifa mahalliy ma’muriyat vakillariga, oqsoqol va volost boshliqlariga topshirish belgilandi. Mahalliy ma’muriyat vakillari farmon ijrosining so‘zsiz bajarilishini ta’minlashi shart edi, safarbarlik ro‘yxatini tuzishda vaziyat yanada keskinlashdi. Dastlabki hisob-kitobga ko‘ra, har o‘n nafar erkakdan bittasi safarbar etilishi kerak edi [5. B. 62].

Rus ma’muriyati front ortidagi ishlarga safarbarlikni belgilashda viloyatlarning mehnat unumdorligi va samaradorligiga ahamiyat berishdi, bu esa aholi noroziliklarining kelib chiqishi omillaridan biriga aylandi. Jumladan, paxtachilik hududlarida safarbarlik qisqartirilib, ko‘chmanchi aholi hisobidan to‘ldirildi. Sababi – paxta yetilib kelayotganligi, dalalardan mehnatkashlarni safarbar etish hosilning nobud bo‘lishiga, bu esa rus yengil sanoatining turg‘un holatiga, iqtisodiyotining yanada og‘irlashishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Shu bois Turkiston general-gubernatori o‘troq viloyatlardan safarbar etiluvchilar sonini 50 ming kishiga kamaytirish iltimosi bilan Petrogradga telegramma yo‘lladi va uning iltimosi qanoatlantirildi, o‘troq viloyatlar safarbarligi 50 mingdan 30 ming nafarga kamaytirildi hamda bu hisob dasht viloyatlari hisobidan to‘ldirildi [6. B. 15].

Yuqoridagi keltirilgan sabablar asosida safarbar etiluvchilar soni viloyatlar kesimida qayta ko‘rib chiqildi. Farg‘ona viloyati asosiy paxta yetishtirish markazi hisoblangan. Natijada safarbarlik qaytadan belgilandi, Sirdaryo viloyatidan 87 ming kishi (dastlab 80 ming belgilangan edi), Yettisuv viloyati – ko‘chmanchi-qirg‘izlardan 60 ming kishi (dastlab 43 ming kishi edi), Farg‘ona viloyatidan 50 ming kishi (dastlab 77 ming kishi edi), Samarqand viloyatidan 38 ming kishi (dastlab 35 ming kishi edi), Kaspiyorti viloyatidan 15 ming kishi etib belgilandi [5. B. 63]. Natijada Farg‘ona viloyatidan aholi safarbarligi 27 ming nafarga qisqartirilib, Yettisuv viloyatidan 17 ming nafar, Sirdaryo viloyatidan 7 ming nafar va Samarqand viloyatidan 3 ming nafar ishchi qo‘shish hisobiga 27 ming ishchi kuchi qoplandi. Kaspiyorti viloyatida safarbarlik o‘zgarishsiz qoldi. Yuqoridagi safarbarlik nisbati 250 ming holatida qolgan, faqat iqtisodiy muhim viloyatlardagi safarbar etiluvchilar soni kamaytirilib, dasht viloyatlaridan safarbar etiluvchilar hisobiga qoplandi. Bu esa vaziyatning yanada keskinlashishiga, aholini noroziligining kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Farg‘ona viloyati imperiya uchun muhim hisoblanib, rus askarlari kiyimi uchun xom ashyo yetkazib berar edi. Hududdagi qishloq xo‘jaligi, sanoati, savdosi, bank va kredit operatsiyalari o‘zaro uzviy bog‘liq edi. Moliyaviy olam har qanday notinch vaziyatda iqtisodiy operatsiyalarni qisqartiradi yoki butunlay to‘xtatadi. Iyul oyi paxta dalalarini o‘g‘itlash va sug‘orish davri bo‘lib, mablag‘ ajratilmasa, hosildorlik pasayishi muqarrar edi. Vaziyat keskinlashishi oqibatida dastlab Samarqand, so‘ngra Farg‘ona viloyatida barcha bank va firmalar moliyaviy operatsiyalarini

to‘xtatishdi [7]. Buning oqibatida paxta savdosi qiyinlashdi va xom ashyoning tannarxi yanada pasaydi va Turkiston aholisining ijtimoiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1916-yil iyul boshidan Turkiston bo‘ylab norozilik harakatlari kuchaydi, aholi ma’muriyatdan safarbarlikni to‘xtatishni talab qildi, ma’muriyat binolariga hujum qildi, amaldorlar o‘ldirildi. Vaziyat keskinlashishiga mahalliy amaldorlarning ro‘yxat tuzishdagi adolatsizliklari ham sabab bo‘lgan, masalan, Qo‘qonda pora olgan volost boshlig‘i aholi tomonidan o‘ldirilgan [5. B. 63].

Vaziyatning yanada keskinlashishiga olib kelgan omillardan yana biri imperiya tomonidan joriy qilingan harbiy soliq bo‘ldi. Soliq 19–43 yoshdagi harbiy majburiyatni o‘tashdan ozod etilgan aholi vakillariga qo‘llanishi belgilangan. 1915-yil 1-yanvardan qonun kuchga kirdi va Turkiston o‘lkasi uchun umumiy soliqlarning 21%i nisbatida belgilandi. Aholi daromadiga qarab 6 rubldan 200 rublgacha soliq belgilandi [2. B. 24].

Turkistondagi 1916-yil qo‘zg‘oloni sabablarini o‘rgangani kelgan Rossiya Dumasining vakili A.F.Kerenskiy o‘z ma’ruzasida ham shuni ta’kidlaydi: mahalliy aholi orasida safarbarlik sabab, boy va kambag‘al aholi qatlami o‘rtasidagi vaziyat keskinlashgan. Natijada quyi boshqaruv vakillari, ro‘yxat tuzuvchilar va rus vakillari xalq nafratiga uchrab, qonli to‘qnashuvlar kelib chiqqan. Eng qonli to‘qnashuvlar 5, 7, 9, 13-iyulda bo‘lib, 15 nafar oqsoqol, 12 nafar ro‘yxat tuzuvchi talaba, 2 nafar pristav boshlig‘i va 78 nafar rus aholi vakili o‘ldirildi [8].

Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida g‘ayridinlarga qarshi “muqaddas urush” e’lon qilinishi butun Turkiston bo‘ylab qo‘zg‘olon kuchayishiga sabab bo‘ldi. Turkiston general-gubernatori farmoniga ko‘ra, 1916-yil 17-iyuldan Turkistonda komendantlik soati joriy qilindi, o‘lkada bir oy davomida qo‘zg‘olonlar tinmadi, bu esa o‘lka va Rossiya yengil sanoatiga katta zarar yetkazdi. O‘lkada vaziyat keskinlashayotgani sababli banklar kredit ajratishni to‘xtatdi, dalalardagi paxta oxirigacha terilmadi, komendantlik soati sabab paxta jo‘natish qiyinlashdi [5. B. 64]. General-gubernator A.N.Kuropatkin bergan rasmiy ma’lumotga ko‘ra, norozilik harakatlari Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida 1916-yil 13-iyulda boshlanib, qo‘zg‘olonga aylanib ketdi. Jizzax uyezdi boshlig‘i polkovnik Rukin va pristav kapitani Zotoglov o‘ldirildi. Shuningdek, uchastka pristavi Sobolev, Zomin rus qishlog‘i aholisi, o‘rmon qorovullari va rus amaldorlari kaltaklandi, ayrimlari o‘ldirildi. Jizzax uyezdida isyonchilar tomonidan jami o‘ldirilganlar 83 kishi, yaradorlar 20 nafar, asirga olib ketilganlar 70 kishi, asosan, ayol va bolalar bo‘lib, ko‘pchilik ayollar tahqirlangan [9]. Muhim tomoni shundaki, ruslardan bo‘lgan qurbonlar bo‘rttirib ko‘rsatildi, ammo mahalliy aholidan bo‘lgan qurbonlar soni ko‘rsatilmagan, bundan maqsad mahalliy aholini aybdor qilish va jazoni yanada kuchaytirish bo‘lgan. Mahalliy aholiga nisbatan qattiq jazo choralari ko‘rildi, Turkiston general-gubernatori imperatorga bergan hisobotida Jizzax uyezdida 24 ta qishloq butkul yo‘q qilinganligi, 11 ta qishloq yarim vayron qilingani va bir nechtasiga ziyon yetkazilgani, 1000 ga yaqin musulmon o‘ldirilganligi, aslida qurbonlar 5000 nafarga yaqin bo‘lganligi yashirin hisobotda aytilgan [5. B. 73]. Bunday jazo turini qo‘llashdan maqsad milliy ozodlik uchun kurash ruhini sindirish, aholini qo‘rquvda ushlab turish va chor mustamlaka tuzimini mustahkamlash edi.

Jizzax uyezdidagi qo‘zg‘olonni bostirish uchun Toshkentdan maxsus jazo otryadi yuborildi, 1-avgust kuni qo‘zg‘olon bostirildi va moddiy ziyonlar hisoblab chiqarildi: Jizzax stansiyasidan Obruchevo stansiyasigacha jami 65 verst* temiryo‘l vayron qilingan, 40 ta ma’muriy va 9 ta xususiy inshootga o‘t qo‘yilgan, rus xalqiga tegishli 150 ta ot, 255 ta qoramol va 1000 bosh qo‘y-echki yo‘q qilingan [10].

Farg‘ona viloyat harbiy gubernatori A.I.Gippius mahalliy nufuzli aholi vakillari bilan hamkorlikda safarbarlik ishiga yangicha yondashdi. Masalan, Namangan uyezdida masjid ayvonida 800 kishidan ortiq aholi bilan uchrashuvga Gippius musulmon diniy libosida chiqib, Qur’on oyatlaridan o‘qib, arab tilini yaxshi bilishini namoyish etish bilan birga, bir necha kun oldin Jizzax qo‘zg‘oloni ayovsiz bostirilgani, shahar vayron qilinib, aholi mol-mulki musodara qilingani, o‘zlari shahardan surgun qilinganligini eslatishni unutmadi [5. B. 64].

O‘lkada vaziyat keskinlashganligi, noroziliklar avj olganligi bois imperiya ma’muriyati Turkistonda quyidagi tartib-qoidalarni joriy qildi, bu Andijon uyezdi boshlig‘i I.A.Brjeziskiyning Turkiston general-gubernatori Kuropatkinga 1916-yil 22-iyuldagi hisobotida keltirilgan:

- zudlik bilan o‘lkadagi safarbarlarni belgilangan manzillarga yuborish;
- harbiy nizomga muvofiq, vaqtinchalik xalq sudlari faoliyatini to‘xtatish;
- harbiy nizomga muvofiq, masjid va mahalliy maktablarni yopish;
- kechiktirmay dala sudlarini joriy qilish, bo‘lib o‘tgan tartibsizliklarni ko‘rib chiqish va bosh aybdorlarga o‘lim jazosini qo‘llash;
- mahalliy aholiga Jizzax qo‘zg‘oloni aholi uchun nima bilan yakunlanganligini tushuntirish;
- mahalliy aholi istiqomat qiladigan har bir volost va shaharga belgilangan miqdorda va aytilgan mud-

datga ishchi berishini e'lon qilish va safarbar qilinadigan ishchilar ro'yxatini shaklantirishini talab qilish;

- agar volost yoki shahar belgilangan vaqtda ishchini ta'minlamasa, zudlik bilan ushbu hududlarga jazo otryadini yuborish, ishchi bermagan qishloqlarni vayron qilish, norozi ommani otib tashlash;

- ishchi bermagan qishloq yerlarini davlat fondiga musodara qilish [2. B. 209 – 210].

Nafaqat rus ma'muriyati va harbiylari, balki ko'chirilgan rusiyzabon aholining ayrim toifalari mahalliy aholiga nisbatan adovat ruhida bo'lib, ularga qarshi olib borilgan imperiyaning zo'ravonlik harakatlarida faol ishtirok etdi. "Toshkent temiryo'l ishchilari ish haqining oshirilishini kutib, bozordagi narx-navo oshib ketganidan norozi kayfiyatda bo'lib, davlatdan qurol olish uchun vaziyatdan unumli foydalanishga harakat qilishdi. Mahalliy aholi isyonlaridan foydalangan temiryo'l ishchilari o'z delegatlari orqali harbiy hokimiyatdan sexlari va temiryo'llarni himoya qilish uchun qurol berishini talab qilishdi. Temiryo'l ishchilari Samarqand viloyat harbiy gubernatori Lukoshinni hushyor siyosat olib bormaganlikda, Jizzaxda qo'zg'algan musulmonlarga o'q otishga buyruq bermaganlikda ayblashadi. Ularning fikricha, bu qo'zg'olonning keng yoyilishiga sabab bo'lgan" [5. B. 66].

Turkiston o'lkasida o'troq aholi hududida boshlangan 1916-yil qo'zg'olonlari tez orada ko'chmanchi xalqlar orasida keng tarqalib, katta qurbonlar bilan davom etdi.

Dasht o'lkasi hisoblangan Yettisuv viloyatida noroziliklar 1916-yil avgust oyidan boshlandi. Imperatorning 1916-yildagi safarbarlik to'g'risidagi farmoni nafaqat mahalliy aholi, balki rus qishloqlari aholisining ham noroziligi kuchayishiga olib keldi. Sababi rus qishloqlari erkaklarining 1914-yildan boshlab urushga safarbar etilgani, 1867-yildan tarqatilgan qurollar 1914-yil harbiy qismlarga qaytarib olinishi rus qishloqlarini ancha zaiflashtirgan edi. XX asr boshlariga kelib, Turkistondagi rus qishloqlari "eski" va "yangi" tashkil topgan qishloqlarga bo'lingan. Yangi qishloqlar XIX asr oxirida shakllangan bo'lib, kambag'al rus xo'jaliklaridan iborat edi, ular urushga safarbarlik sabab ancha qashshoqlashgan. "Eski rus qishloqlari" 1867-yildan shakllangan, iqtisodiy baquvvat xo'jaliklar bo'lib, urushga kam safarbar qilingan edi. Yangi rus qishloq aholisi ishchi kuchi kamligi sabab iqtisodiy nochor holatga kelib qolgandi.

Butun O'rta Osiyoga tarqalgan qo'zg'olonlar barcha qishloqlarda bir xil tahdidlar va tazyiqlar bilan kechdi. Yettisuv viloyatining Pishpak, Jarkent, Verniy, Prjevalsk, Norin uyezdlarida qo'zg'olon keng tus oldi. Verniy uyezdining janubi-sharqidagi Asu vodiysi tog'li hududlarida shakllangan qirg'iz to'dalari 1916-yil 6-avgust kuni ma'muriyatga va rus qishloqlariga hujum qilib, telegraf aloqa vositalarini uzish orqali markaz bilan aloqasini uzishga harakat qilishgan, temiryo'llar buzib tashlangan. 1916-yil 7-avgust kuni Stolipin qishlog'iga qirg'iz to'dalari hujum qilishdi, oqibatda ruslar ancha katta talafot ko'rdi va harbiylashgan To'qmoq qishlog'iga qochib o'tishadi. Bir hafta davomida qirg'izlardan iborat qo'shni qishloq qamal qilindi. Mudofaaga mas'ul bo'lgan harbiy boshliq ma'lumotiga ko'ra, "qirg'izlar 5000 nafardan ko'p bo'lib, guruhlarga bo'lingan va o'z bayrog'iga ega edi. Tez orada Verniy shahridan pulemyotlar bilan qurollangan yuz kishilik kazak polki va 250 kishilik rus ko'ngillilaridan iborat qo'shin dushmanni tor-mor etdi va qirg'iz qo'shinlari katta talafot ko'rdi" [5. B. 69]. Bunday to'qnashuvlar ko'proq ko'chmanchilar mag'lubiyati bilan yakunlanar edi. "Prjevalskga yuborilgan jazo otryadi shahardan bir necha kilometr uzoqlikda, taxminan 300 kishilik qirg'iz qo'zg'olonchilariga duch kelib, ulardan 200 nafari o'ldirildi, qolganlar chekinishdi. Ruslar talafot ko'rmadi. Bir necha kundan keyin jazo otryadi yanada kattaroq qirg'iz guruhiga qarshi jang qilib, 300 tasi o'ldirildi, 300 ta o'tov yoqib yuborildi. Jazo otryadi ertasiga yana 20 dan ortiq qo'zg'olonchini o'ldirdi va 400 ta o'tovga o't qo'yildi, jazo qo'shini talafot ko'rmadi. Ertasiga o'nlab rus asirlarini ozod qilish maqsadida, kazak polki qirg'izlarni ruslarni o'g'irlashda ayblab, ularga nisbatan o'zlari hukm chiqarib, 400 kishini otib tashlashdi, chorvalarini so'yib tashlashdi. Jazo otryadlarining bunday hisobotlari davom etdi" [5. B. 72]. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, mahalliy aholiga nisbatan o'ta shafqatsiz siyosat olib borilgan va ko'plab xalqlar va jamoalar yashagan hududlaridan surgun qilingan.

Yana bir jazo otryadining hisobotida, 1916-yil 10-avgust kuni ertalab, ovulga hujum uyushtirildi, 50 ta qirg'iz o'ldirildi. Uncha uzoqda bo'lmagan yana bir ko'chmanchilar ovulini ko'rgan jazo otryadi askarlari "ura" deb hujum qilishdi, 80 nafar mahalliy aholini o'ldirib, o'tovlarga o't qo'yishdi. Yana bir necha o'tovlarga hujum qilindi. Qo'zg'olonchilarni ta'qib qilgan jazo otryadi 12-avgust kuni 5000 kishilik ko'chmanchi qirg'izlar guruhiga duch kelishdi, ular asosan ayollar, keksalar va bolalardan iborat edi. Ofitser buyrug'i sabab aholiga ziyon yetkazishmadi, lekin yetakchilari o'ldirildi, 1000 bosh chorvasi musodara qilindi [5. B. 72].

Katta qirg'inga uchragan Turkiston o'lkasi xalqlaridan yana biri dunganlar jamoasidir. Dunganlar – musulmon xitoyliklar bo'lib, 1861–1868-yillardagi Sin imperiyasiga qarshi qo'zg'olonda qatnashgan, isyon bostirilgach, 1880-yil Xitoyning Kulja va Qashqar provinsiyalaridan ko'chib kelishgan. Bu yerda ular "xueyszu" (islom millati) deb atalgan [1. B. 30].

Rus ma’muriyati dunganlarni Prjevalsk uyezdidagi Mariansk volostiga joylashtirgan, ular ruslarga sodiq xizmat qilishgan. Asosiy mashg‘uloti opium yetishtirish bo‘lib, Xitoyga sotishar edi. 1916-yil safarbarlik haqida buyruq e’lon qilinishi dungan jamoasining ikki guruhga bo‘linishiga sabab bo‘ldi. Birinchi guruh mehnat safarbarligiga va ruslarga xayrixoh bo‘lsa, ikkinchi guruh qarshi chiqqan. Qarshi chiqqan dunganlar ruslar tomonidan qat’iy ta’qibga duchor qilindi, jumladan, Xitoyga opium sotishi taqiqlandi. Bu holat dunganlarning yarmi Xitoyga ko‘chib ketishiga, qolganlari qirg‘iz aholisiga qo‘shilishiga sabab bo‘ldi. Prjevalskdagi qirg‘izlar bilan dunganlar qo‘zg‘olonlari rus hukumatini sarosimaga soldi va har qanday qarshilik qat’iy jazolandi. 9-avgust kuni bozorda bir rus askari havoga o‘q uzadi, bu esa yolg‘on xabar – “bozorda qirg‘izlar ruslarni o‘ldiryapti”, degan gap tarqalishiga sabab bo‘ldi. Qishloqdagi rusiyzabon aholi uylaridan chiqmay, yordam chaqirishdi hamda o‘zlari ham harbiy harakatlarda faol ishtirok etishdi. 10-avgust kuni shaharda yashaydigan mahalliy aholi – qirg‘iz va dunganlarni, qo‘zg‘olonga aloqasi bor-yo‘qligidan qat’i nazar, ayamasdan otib tashlashdi. 1500 dungandan 8 kishi omon qoldi. Uyezd boshlig‘i Ivanovning dunganlarga qarshi harakatni to‘xtatish haqidagi buyrug‘i shahardagi rusiyzabon aholi noroziligiga sabab bo‘ladi va Ivanovni “shaharni qirg‘iz va dunganlarga pul evaziga topshirganlikda ayblashadi”. Ko‘p o‘tmay jazo otryadi dunganlar bilan to‘qnashdi. Ular qochishga harakat qilishdi, lekin rus jazo otryadi ularni quvib yetdi va o‘ldirdi. Iyul-avgust oylari Dasht o‘lkasida ruslar tomonidan ko‘chmanchilarni qirg‘in qilish, o‘tovlariga o‘t qo‘yish, chorvasini haydab ketish avj oldi [5. B. 73].

Bir necha oydan keyin holatni o‘rgangan ishchi komissiya xulosasida quyidagi holat keltirilgan: “Ivanov buyrug‘i bilan dunganlarning bir qismi bozor maydoniga haydab kelingan va qo‘shinga miltiq shiqi bilan o‘ldirish buyurilgan. Qolganlarini politsiya va olomon o‘ldirgan va ularning mol-mulki musodara qilingan. 10 kundan keyin uyezdga qo‘shimcha jazo otryadi kelib, Mariansk qishlog‘ida qolgan qirg‘iz va dunganlarning 500 dan ortig‘ini shafqatsizlik bilan qatl etishgan, qochib ketganlar bo‘lmagan” [5. B. 71]. Yuqorida keltirilgan holatlar shundan dalolat beradiki, Turkistondagi mahalliy xalqlar nafaqat ruslar tomonidan qirilgan, balki yagona bo‘lgan xalqlarning bo‘linishiga va tarqalib ketishiga sabab bo‘lgan.

Turkiston rus qishloq aholisi mahalliy aholini yo‘q qilishdagi ishtirokiga 1916-yil 8-avgustdan general-gubernator etib tayinlangan A.N.Kuropatkinning Toshkentga kelishi va isyonlarni bostirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlari sabab bo‘ldi. Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat edi:

- qo‘shinni qurollantirish va rus qishloq aholisiga qurol tarqatish (ulardan qaytarib olingan edi);
- kazaklardan harbiy bo‘linmalar tuzish – Yettisuvdagi zaxiradagi qo‘shin hamda yangi chaqirilgan harbiylardan;
- Toshkentdan qo‘shimcha kuch yuborish; qirg‘izlarga qarshi hujumlar uyushtirib, ularni sarosimaga solish;
- isyonda qatnashgan yoki ko‘chib ketgan qirg‘izlarning hosilini va mol-mulkini musodara qilish;
- barcha ko‘chmanchi qabilalar chorvasini musodara qilish va shu usulda ularni zaiflashtirish;
- qochoq qirg‘izlarga Xitoyga ketishga ruxsat berish [5. B. 71].

Shunday qilib, 1916-yil Turkiston to‘laqonli urush maydoniga aylandi. Toshkent va Orenburgdan kelgan qo‘shin qo‘zg‘olon o‘chog‘iga aylangan Farg‘onadan Noringacha, Pishpakdan Tokmakkacha, Semipalatinskdan Verniygacha bo‘lgan hududlarda shafqatsiz janglar olib bordi.

1916-yil 10-sentabrda Sankt-Peterburgda Davlat dumasining turli fraksiyalariga mansub 30 nafar deputat ishtirokida Turkistondagi vaziyatni o‘rganishga kelgan deputat A.F.Kerenskiy va musulmon vakilidan bo‘lgan deputat Tevkelev hisobotini tinglash masalasida kengash o‘tkazildi. Kerenskiy o‘z ma’ruzasida Turkistondagi so‘nggi davrda bo‘layotgan keskinliklar borasida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashdi: imperator farmonining noto‘g‘ri talqin qilinishi, mahalliy quyi ma’muriyat vakillari ijroda yo‘l qo‘ygan qo‘polliklar, aholining diniy qadriyatlari, turmush tarzi hisobga olinmaganligi, kelishuv yo‘li izlanmaganligi ommaviy noroziliklarga sabab bo‘lgan va hisobotda quyidagi xulosalar keltirilgan: “safarbarlik haqidagi farmon ijrosi musulmonlar muqaddas oyi – ro‘za oyiga to‘g‘ri kelib, aholi ro‘za tutib, saharlikdan keyin, soat 9–10 gacha dam olishgan. Lekin mahalliy ma’muriyat vakillari qo‘pollik bilan qishloq aholisini uyqudan uyg‘otib, uylaridan haydab chiqar va ishga yaroqlilarini saralab ajratishar, bu esa ayollar noroziligiga va dahshatli mishmishlar, ya’ni Turkiston tub aholisi harbiy xizmatga chaqirilayotganligi va ular jang maydonining birinchi qatorida qurolsiz qalqon sifatida haydab borilishi haqida gaplar tarqalishiga sabab bo‘lgan” [11]. Imperiya qonunlariga ko‘ra, Turkiston mahalliy aholisining harbiy xizmatga safarbar etilishi taqiqlangan edi, safarbarlik e’lon qilinishi Turkiston va Dasht o‘lkasida turli noroziliklarga sabab bo‘ldi.

A.I.Kuropatkin 1916-yilgi Turkistondagi qo‘zg‘olon ishtirokchilariga nisbatan ko‘rilgan shafqatsiz jazo choralari haqida hisobotida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: 1917-yil 1-fevraligа qadar 347 kishi o‘lim jazosiga hukm qilindi, 168 kishi surgun qilindi, 228 ki-

shi axloq tuzatish ishlariga yuborildi, 129 kishi ozodlikdan mahrum qilindi. Bundan tashqari imperatorga “isyonchilar”ga qo‘llagan jazolari, davlat tartibi va osoyishtaligini saqlash uchun ishlab chiqqan choratadbirlari haqida hisobot bergan:

1. Jizzax uyezdi aholisiga 76 nafar rus vakili vahshiylarcha o‘ldirilgan hududlardan 2000 desyatina yer musodara qilinishi e’lon qilindi.

2. Bir necha rus qishloqlarini vayron qilib, u yerdagi 2179 rus aholisini o‘ldirgan, Prjevalsk uyezdida ajratilgan yerini tashlab qochib ketgan qirg‘iz aholisining yurtiga qaytishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida buyruq berildi.

3. Prjevalsk uyezdidagi musodara qilingan qirg‘iz yerlari kazak harbiy lagerlari va rus qishloqlariga berildi.

4. Prjevalsk uyezdining bo‘sh yerlarida sobiq Ural kazaklari uchun harbiy manzilgohlar shakllantirish va ularni Yettisuv kazak qo‘shinlari tarkibiga qo‘shish.

5. Qo‘zg‘olon ko‘tarib, rus qishloqlariga hujum qilgan va jazo otryadlari tomonidan bostirishda Xitoyga qochib ketgan, Pishpek uyezdidan bo‘lgan qirg‘izlar qaytib kelsa, ularni o‘z yerlariga qo‘ymaslik, qaytganlarni yangi tuzilgan Norin uyezdiga joylash.

6. Jarkent uyezdining bir qismida isyon ko‘targan va katta qismi Xitoyga qochib ketgan qirg‘izlarni o‘z yerlariga qo‘ymaslik, qaytganlarni Norin va Jarkent uyezdiga joylash.

7. Prjevalsk uyezdining g‘arbiy qismi va Pishpek uyezdining janubiy qismida Norin uyezdini tuzish va Prjevalsk, Pishpek va Jarkent uyezdidan bo‘lgan isyonchilarni shu yerga joylashtirish.

Bu choralar asosan ko‘chmanchi qirg‘iz xalqiga nisbatan qo‘llanilib, aholi ijtimoiy hayotining yanada og‘irlashishiga olib keldi. Hisobot yakunida Kuropatkin 1916-yil 13-iyuldan 1917-yil 25-yanvargacha davom etgan isyonlarni bostirishda 14 yarimta batalyon, 33 ta yuzlik qo‘shin, 42 ta qurol, 69 ta pulemyot ishtirok etganini keltirgan [12].

Xulosa

Chor imperiyasining Birinchi jahon urushi davrida mahalliy aholini front ortidagi ishlarga jalb etish siyosati 1916-yil qo‘zg‘olonining asosiy sababi bo‘lgan. Birinchi jahon urushi boshlangan davrda Rossiya imperiyasi o‘z iqtisodiy ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida Turkiston o‘lkasini xom ashyo bazasiga aylantirdi. Imperiya armiyasi va sanoati uchun zarur bo‘lgan resurslarni yetkazib berish majburiyati mahalliy aholi zimmasiga yuklatildi. Urush sharoitida oziq-ovqat narxlarining oshishi, paxta narxining keskin tushib ketishi va harbiy xarajatlarni qoplash uchun yuklatilgan soliqlar mintaqadagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Natijada 1916-yil iyul oyi boshlaridan Turkiston o‘lkasining turli hududlarida norozilik namoyishlari va qarshilik harakatlari boshlandi. Eng keskin qarshilik Farg‘ona, Sirdaryo, Yettisuv va Samarqand viloyatlarida kuzatildi. Jizzax uyezdidagi qo‘zg‘olon esa ommaviy isyon tusini oldi va rus ma’muriyati hamda harbiy garnizonlarga qarshi qaratildi. Qo‘zg‘olon davomida mahalliy aholi bir nechta rus amaldorlari, harbiy pristavlar va ro‘yxat tuzuvchilarni o‘ldirdi. Bu holat imperiya ma’muriyati tomonidan jiddiy xavf sifatida baholanib, Jizzax uyezdiga maxsus jazo otryadlari yuborildi.

1916-yil qo‘zg‘oloni faqatgina Rossiya imperiyasiga qarshi bir vaqtlik isyon bo‘lib qolmay, balki mahalliy aholining mustamlakachilikka qarshi kurash ruhiyatini kuchaytirgan muhim tarixiy voqea hamdir.

Adabiyotlar:

1. Восстание 1916 года в Туркестане: документальные свидетельства общей трагедии: Сборник документов и материалов. – Москва: Марджани, 2016. – 468 с.

2. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане /Под ред. А.В.Пясковского. – Москва: Издательство АН СССР, 1960. – 794 с.

3. Мухаммедов Ш.Б., Россия и Средняя Азия: страницы истории, личности, мнения. – Ташкент: Baktriya press, 2020. – 372 с.

4. Ўзбекистон Миллий Архиви (ЎзМА) И-1 фонд, 31-рўйхат, 1194-иш, 12-варақ.

5. Буттино М. Революция наоборот: Средняя Азия между падением царской империи и образованием СССР. / Перевод с итальянского Николая Охотина. – Москва: Звенья, 2007. – 448 с.

6. Восстание 1916 года в Киргизстане. Документы и материалы, собранные Л.В.Лесной. /Под редакцией и с предисловием Т.Р.Рыскулова. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство (Соцэкгиз), 1937. – 168 с.

7. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1194-иш, 14-варақ

8. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1194-иш, 35-варақ орқа томони.

9. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1196-иш, 2-варақ.
10. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1196-иш, 2-варақ орқа томони.
11. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1194-иш, 34-варақ орқа томони – 35-варақ.
12. ЎзМА, И-1 фонд, 31-рўйхат, 1196-иш, 19-варақ ва унинг орқа томони.
13. ЎзМА. И-1 фонд, 31-рўйхат, 1196-иш, 15-варақ.

THE REBELLIONS OF 1916 IN TURKESTAN AND ITS CONSEQUENCES

Makhfuza I. Sultonova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 32-39.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Russian Empire, Turkestan, raw material base, World War I, mobilization, uprising, "old" and "new" Russian villages, Kyrgyz, Dungans.*

This article provides a historical and socio-economic analysis of the 1916 national liberation uprising in Turkestan. The policy of the Tsarist Empire to mobilize the local population for rear-line work during World War I is considered one of the main causes of the uprising. The article also examines how the uprising unfolded in different regions of Turkestan, the role of the local elite and the general population, as well as the punitive measures taken by the Russian administration.

On June 25, 1916, Russian Emperor Nicholas II signed a decree on the mobilization of the population of Turkestan, the Caucasus, and Siberia for rear-line labor. This decree caused serious discontent among the local population, as it required the forced enlistment of men aged 19 to 43 for non-military labor. A total of 250,000 people were to be mobilized from Turkestan, with the process being overseen by local administrators, elders, and volost chiefs. However, widespread corruption, administrative abuse, and injustices in the enlistment process further fueled public dissatisfaction.

As a result, from early July 1916, protests and resistance movements erupted in various parts of Turkestan. The most intense resistance was observed in the Fergana, Syr Darya, Semirechye, and Samarkand regions. The uprising in Jizzakh district took on the character of a mass rebellion, targeting Russian administrative officials and military garrisons. During the revolt, local residents killed several Russian officials, military commissioners, and census takers. The imperial administration regarded this as a serious threat and sent special punitive detachments to Jizzakh district.

During the suppression of the uprising, the Russian administration employed extremely brutal measures. In Jizzakh district, 24 villages were completely destroyed, 11 were partially ruined, and several others suffered significant material damage. Although Turkestan Governor-General A.N. Kuropatkin reported the number of casualties to the emperor, classified documents indicate that the actual losses among the local population were several times higher. The Russian administration sought to suppress the uprising through fear and to weaken national liberation movements.

The article explores the economic, political, and social causes of the 1916 uprising, its scale across different regions, and its consequences based on archival documents, historical sources, and various analyses. Additionally, it examines the military taxes imposed by the Russian Empire, the attitudes of local elites and officials towards the uprising, the punitive measures implemented by the imperial administration, and their impact on Turkestan's subsequent history.

This study aims to deeply analyze the historical significance of the 1916 uprising in Turkestan, its effects on the lives of the local population, and its influence on future political developments. The research is based on archival sources, contemporary studies, and historical documents.

References:

1. (2016) Vosstanie 1916 goda v Turkestane: dokumental'nye svidetel'stva obshchej tragedii [The 1916 Uprising in Turkestan: Documentary Evidence of a Common Tragedy]. Sbornik dokumentov i materialov [Collection of documents and materials]. Moscow: Mardzhani.

2. Pyaskovsky A.V. (ed) (1960) Vosstanie 1916 goda v Srednej Azii i Kazahstane [The 1916 Uprising in Central Asia and Kazakhstan]. Moscow: Izdatel'stvo AN SSSR.

3. Muhammedov, Sh.B. (2020) Rossiya i Srednyaya Aziya: stranicy istorii, lichnosti, mneniya [Russia and Central Asia: Pages of History, Personalities, Opinions]. Tashkent: Baktriya press.

4. O'zbekiston Milliy Arxivi [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund I-1, List 31, Case 1194, Sheet 12.

5. Buttino, M. (2007) Revolyuciya naoborot: Srednyaya Aziya mezhdu padeniem carskoj imperii i obrazovaniem SSSR. [Revolution in Reverse: Central Asia between the Fall of the Tsarist Empire and the Formation of the USSR]. Moscow: «ZVEN'YA», 2007. – 448 s.

6. Ryskulova, T.R. (1937) Vosstanie 1916 goda v Kirgizstane [The 1916 Uprising in Kyrgyzstan]. Dokumenty i materialy, sobrannye L.V.Lesnoj [Documents and materials collected by L.V.Lesnaya]. Moscow: Gosudarstvennoe social'no-ekanomicheskoe izdatel'stvo (Socekgiz).

7. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1194, Sheet 14.

8. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1194, Back page 35.

9. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1196, Sheet 2.

10. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1196, Back page 2.

11. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1194, 34th back – 35th sheet.

12. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1196, 19, Back page 19.

13. NA of Uz. I Fund I-1, List 31, Case 1196, Sheet 15.

Muallif haqida ma'lumot:

SULTONOVA Mahfuza Ibrohimovna – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: shoxruxbek962@gmail.com